

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishi – postindustrial jamiyat iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchidir

Dunyo miqyosida iqtisodiy rivojlanishning eng muhim qonuniyatlaridan biri, iqtisodiy o'sishning o'zaro bog'liqligi va milliy iqtisodiyotda xizmatlarning tobora ortib borayotgan roli hisoblanadi, bu xizmatlar sohasida foydalaniladigan mehnat, moddiy va moliyaviy resurslar ulushining ortishi bilan izohlanadi.

Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Bu, xususan, sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jiozlanishining o'sishi, ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'rni juda katta va ahgamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chiqqan holda tovarlar bilan to'ldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir.

Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, sug'urta va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bundan tashqari, xizmatlar tovarlar savdosining ajralmas qismi hisoblanadi (ayniqsa texnik jihatdan murakkab), chunki tovarlarni sotish asosan sotish vaqtida ko'rsatilayotgan xizmatlardan va sotishdan keyingi xizmatlardan iborat rivojlanayotgan tarmoqni talab qiladi.

Yangi korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko'rsatilayotgan xizmatlar ro'yxatini kengaytirish kelgusida ish o'rinlarini ko'paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

2019-yil 1-sentabr holatiga respublikada jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 380,9 ming taga yetdi. Xizmatlar sohasiga 249 mingdan ziyodi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ularning o'sishi 20,4 % ga oshdi.

**2019-yil 1-sentabr holatiga xizmatlar
sohasida faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 42,4 taga ko'paydi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ularning umumiy sonining uchdan ikki qismini tashkil etadi, bu 65,6 % ni tashkil etadi.

Taqqoslash uchun: kuzatilgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 17,8 %, qurilishda - 9,3 %,ni tashkil etdi va atiga 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yil 1-sentabr holatiga faoliyat
ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, %**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil 1-sentabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (37,3 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning soni 9,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ularning umumiy sonidagi ulushi 6,0 % ni yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,1 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,0 % ni tashkil etdi.

2019-yil 1-sentabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Ma'lumot uchun: 2018-yil 1-sentabr holatiga, xizmatlar sohasida 207,5 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari - 33,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 9,1 %, tashish va saqlash - 6,2 %, axborot va aloqa - 3,3 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish - 3,1 %, boshqa turlar - 45,2 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mamlakatda xizmatlar sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.


Kichik tadbirkorlik sub'ektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, o'tgan yilga nisbatan, 2019-yil 1-sentyabr holatiga ularning soni 39,3 ming birlikga ko'paydi va 188 ming birlikni tashkil etdi va 26,4 % ga oshdi..

2019-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (42,4 ming birlik) o'tgan yilga nisbatan 20,1 ming birlikga ko'paydi.

Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari soni (36,2 ming birlik) 20,4 ming birlikga ko'paydi.


Xizmatlar sohasida band bo'lgan yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlik



2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %




Moliyaviy
xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi
xizmatlar




Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
xizmatlar



Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari



Transport
xizmatlari



Shaxsiy
xizmatlar



Me'morchilik sohasidagi
xizmatlar



Savdo xizmatlari



Kompyuter va maishiy tovarlarni
ta'mirlash bo'yicha xizmatlar



Ta'lim sohasidagi
xizmatlar



Boshqa xizmatlar



Ijara xizmatlari

Yuqori bo'lmagan o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (3,7 %) shuningdek ijara xizmatlarida (2,6 %) kuzatildi.


**2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	117 527,9	112,9
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6 716,4	107,7
Moliyaviy xizmatlar	21 374,7	161,7
Transport xizmatlari	33 909,6	105,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	15 603,2	102,4
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 487,9	106,2
Savdo xizmatlari	29 750,5	104,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	3 643,0	104,2
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 374,3	103,7
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 779,3	107,6
Ijara xizmatlari	2 455,9	102,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 944,0	104,0
Shaxsiy xizmatlar	2 871,2	104,4
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	2 317,6	110,1
Boshqa xizmatlar	3 903,5	102,9

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohatlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmatlar turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

2019-yil yanvar-avgust oylarida umumiy tarkibdagi ustun xizmat turlarining taqqoslanishi, %



O'tgan yilning shu davriga nisbatan transport xizmatlari hajmi 5 876,3 mlrd. so'mga oshdi va 33 909,6 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Bundan tashqari, eng katta hajm savdo xizmatlariga to'g'ri keldi - 29 750,5 mlrd. so'm, bu 4 482,6 mlrd. so'mga, shuningdek moliyaviy xizmatlar - 21 374,7 mlrd. so'mga, ularning hajmi 8 490,4 mlrd. so'mga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlar tarkibida katta qismi transport xizmatlariga to'g'ri keladi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-avgust oylarida ularning ulushi 28,9 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng katta ulushni savdo xizmatlari (25,3 %), moliyaviy xizmatlar (18,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,7 %) egallaydi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %




Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan boqliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, Qurilish loyihalarini yanada amalga oshirish, bino va inshootlarni rekonstruktsiya qilish, shuningdek transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan va mintaqaning barcha mamlakatlari bilan umumiy chegaralarga ega bo'lgan yagona mamlakatdir: shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston bilan, janubi-g'arbda Turkmaniston bilan, janubda Afg'oniston bilan, janubi-sharqda Tojikiston va sharqda Qirg'iziston bilan chegaradosh.

Bugungi kunda respublikamiz transport infratuzilmasini rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga va barcha yo'nalishlarda hamda transportning barcha turlarida yuklar va yo'lovchilarni tashishda mamlakatning ehtiyojlarini qondirish uchun noyob imkoniyatlarga ega.

2019-yil yanvar-avgust oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 46,0 % ni tashkil etadi.

Transport xizmatlarida quvur yo'li orqali ko'rsatilgan transport xizmatlarining hajmi 21,6 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy hajmida temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar 13,3 % ga yetdi.

Havo transporti orqali ko'rsatilgan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarning ulushi 10,9 %, yordamchi transport faoliyati esa – 8,2 % qayd etildi.

Ma'lumot uchun: *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq boshqaruvini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 10 iyuldagi PQ-4389-son Farmoniga binoan joriy yilning oxiriga qadar O'ztrans yagona interaktiv axborot tizimi bazasida "Yuk tashishlar monitoringi" axborot platformasi ishlab chiqiladi.*


U yuk tashuvchilar tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish, yuk jo'natuvchilar va uni qabul qilib oluvchilar tomonidan real vaqt rejimida tovarlar harakatini monitoring qilishni ta'minlaydi.

Shuning asosida, 2020-yil 1-yanvardan boshlab yuk tashuvchi tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarning kuzatuv hujjatlarini Axborot platformasida majburiy tartibda ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etiladi (<https://www.spot.uz>).

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Eng katta ulush Toshkent shahri (17,5 %), Toshkent (13,4 %), Samarqand (11,4 %), Farg'ona (8,8 %), Andijon (8,5 %), Qashqadaryo (7,6 %) va Buxoro (7,4) viloyatlariga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida hudular bo'yicha
avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar ulushi
(avtomobil xizmatlarining umumiy hajmiga nisbatan),%**




Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ulush Sirdaryo (1,7 %), Jizzax (2,7 %), Navoiy (3,0 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,2 %) qayd etildi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilar transporti katta ulushga ega. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-avgust oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 70,3 % ga yetdi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 29,7 % ni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida tashish turlari bo'yicha
avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining tarkibi, %**



Xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Xususan, savdo sohasida qisqa vaqt ichida uning kichik chakana tashkilotlari - chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, engil konstruksiyali pavilonlar va yarmarka turlarining soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi imkon qadar tezroq hal qilindi, xaridor mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynaydi, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlikni amalga oshiradigan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, shuningdek, ularning turlari va sifatini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 25,3 % ni tashkil etib, bu 29 750,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uchi – 66,8 % ga to'g'ri keladi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 25,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi Toshkent shahriga - 9 583,7 mlrd. so'm yoki 32,2 % ga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng katta hajm Toshkent – 2 660,9 mlrd. so'm (8,9 %), Farg'ona - 2 248,2 mlrd. so'm (7,6 %), Samarqand – 2 240,7 mlrd. so'm (7,5 %), Andijon - 1 964,4 mlrd. so'm (6,6 %) va Surxondaryo - 1 901,0 mlrd. so'm (6,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

Savdo xizmatlarining nisbatan past ulushi Sirdaryo (1,6 %), Jizzax (3,0 %), Xorazm (3,3 %), Navoiy (3,5 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (2,8%) qayd etildi.

**2019 yil yanvar-avgust oylarida savdo
xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Chakana savdo xizmatlarning eng katta ulushi Andijon (83,7 %), Qashqadaryo (83,0 %) va Buxoro (81,1 %) viloyatlariga to'g'ri keladi.


Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida ahamiyatsiz, uning ulushi 44,7 % ni tashkil etdi.

Biroq, Toshkent shahrida ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi sezilarli darajada yuqori – 46,9 %. Andijon viloyatida bu ko'rsatkich eng kichik – 9,6 % bo'ldi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda nisbatan yuqori ulush Samarqand (10,4 %), Farg'ona (8,6 %), Toshkent (8,1 %) viloyatlari, Toshkent shahri (8,4 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (7,2 %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlarning eng kichik ulushi Surxondaryo (3,7 %), Jizzax (4,7 %), Qashqadaryo (4,8 %), Namangan (5,1 %) va Sirdaryo (5,4 %) viloyatlarida qayd qilindi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining tarkibi, %




- Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

Bugungi kunda etakchi o'rinlarni nafaqat savdo va transport kabi doimiy yangilanib borayotgan an'anaviy faoliyat turlari, balki tez o'sib borayotgan bilimga asoslangan biznes va ijtimoiy-madaniy xizmatlar ham egallaydi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 21 374,7 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8 490,4 mlrd. so'mga oshdi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida moliyaviy xizmatlarning hajmi va o'sish sur'atlari



2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Sirdaryo (2,2 marta), Jizzax (94,5 %), Namangan (80,6 %), Buxoro (76,0 %), Navoiy (75,8 %) viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida (77,9 %) kuzatildi.

Boshqa hududlarga qaraganda ushbu davrda o'sish sur'atlari nisbatan past Toshkent (149,4 %), Qashqadaryo (150,4 %) viloyatlari va Toshkent shahrida (156,0 %) kuzatildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi, %



Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 90,3 % ni tashkil etadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 iyuldagi "Mikromoliyaviy xizmatlar foydalanish imkoniyatlarini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4400-sonli qaroriga muvofiq, 2019 yil 1 avgustdan boshlab mikroqarzning maksimal miqdori 50 million so'mgacha (hozirgi vaqtda - 100 EKOIH), mikrokredit - 300 million so'mgacha (hozirgi vaqtda - 1 000 EKOIH) va mikrolizing - 600 million so'mgacha (hozir vaqtda - 2 000 EKOIH) oshadi. Mikrokredit tashkilotlari va lombardlar faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati 30 kundan 15 ish kunigacha qisqartiriladi.

Bundan tashqari, mikrocredit tashkilotlari barcha ishonchli (blankli) kreditlarning ular shakllantirgan ustav fondiga foiz nisbatini ravishda aniqlaydilar, shuningdek AJ tashkil etilgan mikrocredit tashkilotlariga korporativ obligatsiyalarni chiqarish va ularni faqat yuridik shaxslar o'rtasida joylashtirish huquqi taqdim etiladi. Xorijiy mikrocredit tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan mikrocredit tashkilotlarining ustav fondida ishtirok etishiga mumkin. (<https://finance.uz>).

So'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari va aloqa vositalari bilan to'yinganligi kuzatilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarida boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining yaxshilanishiga olib keladi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 6 716,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 7,7 % ga etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 81,0 % ni tashkil etdi.

Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilik xizmatlari 5,5 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar - 6,5 %, axborotlashtirish xizmatlari - 2,9 %, boshqa xizmatlar - 4,1 % ni tashkil etishi qayd etildi.

**2019-yil yanvar-avgust oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




Telekommunikatsiya xizmatlarining eng yuqori ko'rsatkichlari Jizzax (99,1 %), Sirdaryo (98,1 %), Samarqand (97,9 %) va Qashqadaryo (97,0 %) viloyatlarida qayd etildi.

Toshkent shahri – etarli darajada rivojlangan axborot-kommunikatsiya infratuzilmasiga ega hududdir.

Boshqa hududlar bilan taqqoslaganda bu erda kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar (11,5 %), nashriyotchilik xizmatlari (8,7 %), dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar (6,1 %), axborot sohasidagi xizmatlar (4,9 %), kino-videofilmlar va televidenie dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar (1,2 %) da eng yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida esa telekommunikatsiya xizmatlari ulushi Toshkent shahrida nisbatan past bo'lgan, bu 67,6 % ni tashkil etdi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi, %



Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

689,2 mlrd. so'm

2018-yil yanvar-avgust
2 685,1 mlrd. so'm



2019-yil yanvar-avgust
3 374,3 mlrd. so'm

2019-yil yanvar-avgust oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 3 374,3 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 3,7 % ni tashkil etdi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

Ko'rsatilgan ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta hajmi Toshkent shahrida qayd etildi. 2019-yil yanvar-avgust oylarida 1 413,8 mlrd. so'mga yetdi.

Buning sababi, oliy o'quv yurtlari hamda to'lov-kontrakt asosida xizmat ko'rsatadigan xorijiy oliy o'quv yurtlari filiallarining katta qismi bu erda joylashganligidadir.


**2019-yil yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so'm**



Sirdaryo viloyati	61,0
Navoiy viloyati	78,4
Jizzax viloyati	80,0
Surxondaryo viloyati	113,1
Xorazm viloyati	126,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	129,4
Qashqadaryo viloyati	131,5
Namangan viloyati	174,6
Toshkent viloyati	176,4
Andijon viloyati	199,1
Buxoro viloyati	211,0
Farg'ona viloyati	224,6
Samarqand viloyati	255,2
Toshkent sh.	1413,8



2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi, hajmi esa 604,7 mlrd. so'mga oshdi va 3 487,9 mlrd. so'mga etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 79,2 % bilan ustunlik qiladi.


2019-yil yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tarkibi, %

Joriy yilning oldingi davri (yanvar-iyul) ga nisbatan yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 120,8 mlrd. so'mga oshdi, ulushi 20,8 % ni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottedjlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Toshkent shahrida - 1 564,1 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 285,8 mlrd. so'mga oshishi kuzatildi.

Buning o'sishiga oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, ularning hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 206,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'atlari, %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarining eng yuqori o'sishi sur'atlari Xorazm viloyatida - 112,9 % qayd etildi va 2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan bu erda hajm 9,8 f. p. ga oshdi. O'sish Jizzax - 110,9 % (2,3 f. p.), Toshkent - 108,6 % (6,7 f. p.), Samarqand - 108,7 % (5,9 f. p.) va Surxondaryo viloyatlarida - 109,0 % (0,8 f. p.) qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmining pasayishi Buxoro (-2,5 f. p.), Qashqadaryo (-2,4 f. p.), Namangan (-2,0 f. p.), Farg'ona (-0,9 f. p.) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (-6,5 f. p.) kuzatildi.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.


Shunday qilib, 2019-yil yanvar-avgust oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 375,1 mlrd. so'mga oshdi va 1 779,3 mlrd. so'mga etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,6 % ni tashkil etdi.

Hududlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha etakchi o'rinni Toshkent shahri egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 196,9 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasidagi bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 42,4 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Toshkent (10,1 %), Farg'ona (7,9 %), Samarqand (6,2 %), Andijon (5,4 %), Buxoro (5,2 %) va Namangan (5,1 %) viloyatlarida qayd etildi.

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlarning ulushi nisbatan katta bo'lmagan hududlar Sirdaryo (1,3 %) va Navoiy (1,8 %) viloyatlari, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi (2,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida hududlar ulushini taqqoslanishi, %



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tumani va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


Markaziy Osiyo hududida qulay tranzit iqtisodiy va geografik mavqega ega bo'lgan O'zbekiston ushbu mintaqadagi integratsiya jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, mamlakatimiz ko'p tarmoqli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadigan boy tabiiy resurslarga ega.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 33,7 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa viloyatlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Toshkent (7,1 %), Samarqand (6,4 %), Farg'ona (5,9 %) va Andijon (5,2 %) viloyatlarida qayd etildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlar tarkibi, %




Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Sirdaryo (1,4 %), Jizzax (2,2 %), Navoiy (2,6 %), Xorazm (3,0 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,0 %) belgilandi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (122,4 %), Jizzax (116,6 %), Xorazm (114,2 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (115,8 %) va Toshkent shahrida (116,6 %) qayd etildi.

Nisbatan past o'sish sur'atlari Toshkent (107,9 %), Samarqand (109,6 %), Farg'ona (110,5 %) va Surxondaryo (110,7 %) viloyatlarida kuzatildi.

2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %



**2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**


	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
O'zbekiston Respublikasi	117 527,9	112,9	3 519,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 509,4	115,8	1 870,8
viloyatlar:			
Andijon	6 104,1	112,4	1 983,3
Buxoro	4 993,2	111,8	2 627,0
Jizzax	2 580,6	116,6	1 899,0
Qashqadaryo	5 432,4	112,7	1 683,6
Navoiy	3 008,9	112,6	3 060,9
Namangan	4 627,3	111,6	1 673,7
Samarqand	7 555,0	109,6	1 979,8
Surxondaryo	4 505,7	110,7	1 744,9
Sirdaryo	1 628,3	122,4	1 953,8
Toshkent	8 394,8	107,9	2 887,0
Farg'ona	6 951,7	110,5	1 880,3
Xorazm	3 517,7	114,2	1 910,7
Toshkent shahri	39 570,6	116,6	15 676,5

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 655,9 ming so'mga oshdi va 3 519,9 ming so'mga teng bo'ldi, o'sishi 10,9 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Toshkent shahri etakchi o'rinni egallaydi. Bu erda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 15 676,5 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

Namangan (1 673,7 ming so'm), Qashqadaryo (1 683,6 ming so'm) va Surxondaryo (1 744,9 ming so'm) viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi past.

2019-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm




2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 521,5 ming so'mga oshdi.

Toshkent shahrida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 071,2 ming so'mga oshdi.

Shu bilan birga, shu hudud bo'yicha o'tgan davr (2019-yil yanvar-iyul oylari) ga nisbatan 2 466,9 ming so'mga o'sish kuzatilmoqda.

2018-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan hududlar bo'yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlarini oshishi



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishi Sirdaryo (20,2 %), Jizzax (14,2 %), Xorazm (12,2 %) viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi (14,1 %) va Toshkent shahrida (14,3 %) qayd etildi.

Nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Toshkent (106,5 %), Samarqand (107,3 %), Surxondaryo (108,2 %), Farg'ona (108,6 %), va Namangan (109,4 %) viloyatlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozori rivojlanishiga ta'sir qiluvchi hal qiluvchi omil aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Mamlakatimizda postindustriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanishi bilan xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora o'sib boradi, chunki aholining ehtiyojlari doimiy ravishda o'sib boradi va ularning xilma-xilligi doimiy ravishda kengayib boradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi

71-230-80-59